

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI QOSHDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.FM/T.01.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

XALILOV MUXAMMADMUSO MUXAMMADYUNUSOVICH

**“PbTe POLIKRISTALL YUPQA QATLAMLARNING STRUKTURAVIY,
OPTIK VA FOTOELEKTRIK XUSUSIYATLARI”**

01.04.10 - Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2026

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
physical-mathematical sciences**

Xalilov Muxammadmuso Muxammadyunusovich

PbTe polikristall yupqa qatlamlarning strukturaviy, optik va fotoelektrik
xususiyatlari..... 3

Халилов Мухаммадмусо Мухаммадюнович

Структурные, оптические и фотоэлектрические свойства тонких
поликристаллических пленок PbTe 25

Xalilov Muxammadmuso Muxammadyunusovich

Structural, optical and photoelectric properties of thin polycrystalline PbTe
films 48

E'lon qilingan ishlar ro'xati

Список опубликованных работ

List of published works..... 51

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI QOSHDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.FM/T.01.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

XALILOV MUXAMMADMUSO MUXAMMADYUNUSOVICH

**PbTe POLIKRISTALL YUPQA QATLAMLARNING STRUKTURAVIY,
OPTIK VA FOTOELEKTRIK XUSUSIYATLARI**

01.04.10 - Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2026

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/FM738 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (ispm.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Otajonov Salim Madraximovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Zaynabidinov Sirajidin
fizika-matematika fanlari doktori, professor,
O'zR FA akademigi

Muzafarova Sultanpasha Anvarovna
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Nukus davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.FM/T.01.06 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «12» 09 soat 12⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100057, O'zbekiston, Toshkent sh., Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy, Tel.: (+99871)248-79-94, faks: (+99871)248-79-92, e-mail: info@ispm.uz)

Dissertatsiya bilan Axborot - resurs markazida tanishish mumkin. (81 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100057, O'zbekiston, Toshkent shahri, Yangi Olmazor ko'chasi, 20-uy. Tel.: (+99871) 248-79-59; e-mail: info@ispm.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «03» 09 kuni tarqatildi.
(2026 yil «03» 09 daqi 21 raqamli reestr bayonnomasi).



Sh. B. Utamuradova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

J. J. Hamdamov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, k.i.x.

N.A. Turgunov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining qisqa mazmuni)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi vaqtda jahon miqyosida yarimo'tkazgichli asbobsozlik sohasida yangi materiallarni olish usullarining jadal rivojlanishi tufayli yarim o'tkazgichlarning yupqa qatlamlarini o'rganishga qiziqish ularni amaliy qo'llanishining keng imkoniyatlariga bog'liq. Yupqa yarimo'tkazgichli plastinalar va ular asosidagi qurilmalarning o'lchamlarini kichrayishi, texnologik ishlab chiqarish imkoniyatlarining ortishi va bu fizik xususiyatlarning keng spektri yupqa qatlamlar materialshunosligi va yupqa qatlamlar elektronikasining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Muhim vazifalardan biri $A^{IV}V^{VI}$ guruh yarimo'tkazgichli birikmalarining yupqa qatlamlaridagi yangi avlodini qurilmalarining, ayniqsa, infraqizil nurlanishlarni yutadigan yupqa PbS qatlamlaridan tayyorlangan yorug'likka sezgir elementlarning va PbTe birikmasidan tayyorlangan yupqa qatlamli issiqlik o'zgartirgichlarini yaratish va ishlash prinsiplarini o'rganish hisoblanadi.

Jahonda tor zonali yarimo'tkazgich materiallar, xususan PbTe asosidagi polikristall va monokristall yupqa qatlamlarning strukturaviy, optik, fotoelektrik hamda termoelektrik xossalarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu yo'nalishda yupqa qatlamlarning kristall tuzilishi, stexiometrik tarkibi, nuqson markazlari va qo'shimcha fazalarining elektrofizik hamda optik parametrlariga ta'sirini aniqlash, tok tashuvchilar konsentratsiyasi va harakatchanligini boshqarish, termoelektr yurituvchi kuchni oshirish hamda yutilish spektrlarini boshqarish mexanizmlarini o'rganish ustuvor ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, Pb va Te ning qo'shimcha massaviy ulushlari hisobiga stexiometrik tarkibi buzilgan PbTe yupqa qatlamlarida taqiqlangan zona kengligining o'zgarishi holatlari, qo'shimcha energetik sathlarning hosil bo'lish qonuniyatlari, optik va fotoelektrik xossalarning o'zgarish mexanizmlarini kompleks o'rganish, shuningdek, yuqori sezgir tenzorezistiv elementlar yaratish imkoniyatlarini ilmiy asoslash dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda yarimo'tkazgich materiallar fizikasi, mikro- va nanoelektronika, tenzosezgir elektron qurilmalarni rivojlantirish bo'yicha izchil ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida yuqori sezgirlikka ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish, elektrofizik xususiyatlarini kompleks o'rganish va amaliyotga joriy etish hamda ilm-fan natijalarini iqtisodiyot tarmoqlariga tatbiq etish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, PbTe polikristall yupqa qatlamlarining strukturaviy, optik va fotoelektrik xususiyatlarini chuqur tadqiq etish, ularning stexiometrik tarkibini boshqarish orqali termoelektrik va fotoelektrik parametrlarini yaxshilash, infraqizil diapazonda ishlovchi yuqori sezgir fotoqabul qilgichlar, tenzorezistiv datchiklar, hamda zamonaviy mikroelektronika uchun yangi funksional elementlarni yaratish muhim hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "Yangi O'zbekistonni 2022-2026-yillarda rivojlantirish

strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni¹, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 martdagi "Fizika sohasida ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-son Qarori², O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 martdagi "Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish va mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga asoslangan va boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni ma'lum darajada bajarishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Ushbu ilmiy-tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi fan va texnikasini rivojlantirishning III "Energetika, energiya resurslarini tejash, transport, mashinasozlik va asbobsozlik; zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika, elektron asbobsozlik sohalarini rivojlantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoni o'rganilganlik darajasi: jahonning yetakchi olimlari Akihiro Ishida, Xoang Txi Xuan Thao, Seisuke Nakashima, Hidenari Yamamoto, Mamoru Ishikiriyamalar (Yaponiya) PbTe yupqa qatlamlari va PbTe asosidagi super panjaralarning termoelektrik xossalarini, R. Koler (Germaniya), K. Berxart, K. N. Chopra, D. M. Freyk, G. Kolfield, R. Lamberts, A.V.Kumar, A.K.Chaudhuri (Hindiston) kabi olimlar PbTe xalkogenid birikmalarining xossalarini chuqur o'rganishgan.

Ushbu yo'nalish bo'yicha MDH davlatlari olimlaridan G.Z.Bagieva, D.Sh.Abdinov, N.B.Mustafaev (Ozarbayjon) kabi olimlar tellur va qo'rg'oshin massaviy ulushi oshirilgan PbTe monokristallarining elektr xossalari, O.Xshanovska, T.Parashchuk, I.Horichoklar n - va p - tipidagi PbTe da termoelektrik xossalarini, X. M. Dashevskiy (Rossiya) PbTe yupqa yupqa qatlamlarining termoelektrik xususiyatlarini va ularning shogirdlari bosim o'tkazish orqali kremniyning xalkogenid birikmalarini va boshqa yarimo'tkazgichlarni deformatsiyalash yo'li bilan tenzosezgirlik xususiyatlarini samarali boshqarishga asoslangan turli tenzosezgir datchiklarni yaratish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi olimlari akademik R.A.Mo'minov, Z.S.Zaynobiddinov, A.Mamadolimov, professorlar A.V.Karimov, A.Z.Rahmatov, S.X.Shomirzaev, B.A.Ataqulov, E.A. Abdullaev, Z.T.Azamatov, T.M.Roziqov, O.O. Mamatkarimov, D.M.Yodgarova va ularning shogirlari xalkogenid birikmalar va kremniy yarim o'tkazgichlarga bosim o'tkazish bilan ularning elektr va deformatsion xossalarini o'rganishga katta hissa qo'shgan.

Bugungi kungacha olib borilgan ko'plab tadqiqotlarga qaramay, yupqa qatlamlarda buzilgan stexiometriyaga ega polikristalli PbTe birikmalarini deformatsiyalanishi hodisalari va ularning tashqi omillar: optik va fotoelektrik xususiyatlarga ta'siri hali ham yetarlicha o'rganilmagan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "Yangi O'zbekistonni 2022-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 martdagi "Fizika sohasida ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-son Qarori

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqot ishi Farg'ona davlat universitetining ilmiy tadqiqot rejasi doirasida hamda 2012-2014 yillarda bajarilgan ITD-12-56 "Yarim o'tkazgichlardan termoelektrik materiallar olish" va 2018-2020-yillarda bajarilgan "Inert gaz muhitida yarimo'tkazgichli materiallarni olish texnologiyasi" loyihalari doirasida bajarilgan. Tadqiqotning bir qismi Rostov-Dondagi (Rossiya) Asboblarni nazorat qilish, o'lchash va diagnostika markazida o'tkazilgan.

Tadqiqotning maqsadi Polikristalli PbTe yupqa qatlamlarining strukturaviy, optik va fotoelektrik xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

yuqori darajada buzilgan stexiometrik nisbatga ega polikristall PbTe(Te) va PbTe(Pb) yupqa qatlamlarni o'stirish texnologiyasini takomillashtirish va ularning elektr o'tkazuvchanligini tadqiq qilish;

polikristall PbTe(Pb) yupqa qatlamlaridagi tok tashuvchilari konsentratsiyasini Pb ning massaviy ulushi qiymatiga bog'liqligini aniqlash;

polikristall PbTe, PbTe(Te) va PbTe(Pb) yupqa qatlamlarning elektrofizik, optik, fotoelektrik xususiyatlarini kompleks tadqiq qilish orqali tenzosezgir elementlarni yaratish;

Pb va Te ning qo'shimcha massaviy ulushini kiritish natijasida hosil bo'lgan polikristall PbTe(Pb), PbTe(Te) yupqa qatlamlarini yutilish spektrini aniqlash;

Pb va Te ning massaviy ulushini ortishi natijasida polikristall PbTe(Pb), PbTe(Te) yupqa qatlamlarida yuzaga keladigan stexiometrik nisbat buzilishining taqiqlangan zona kengligiga ta'sirini o'rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Pb va Te ning massaviy ulushi ortishi natijasida hosil bo'lgan PbTe(Pb), PbTe(Te) birikmalari hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti polikristall PbTe yupqa qatlam namunalarining elektrofizik va optik xususiyatlarining deformatsiyaga, harorat jarayonlariga va superstexiometrik xlorli muhitda ishlov berishga bog'liqligidan iborat.

Tadqiqot usullari. Bu ishda polikristalli yupqa qatlamlarni o'stirishda VUP-4 qurilmasida termovakuum changlatish usulidan, polikristalli PbTe yupqa qatlamlarining sirt relefi morfologiyasini tadqiq qilish uchun atom-kuch mikroskopidan, Powder Cell-2.4 dasturi yordamida Ritveld usulida difraktogramмага ishlov berish hamda Xoll koeffitsienti usuli yordamida solishtirma qarshilik, harakatchanlik va konsentratsiyani aniqlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

ilk bor Te ning massaviy ulushi 2,8% ga oshirilganda polikristall PbTe(Te) yupqa qatlamlarining termoEYuKning qiymati 600 mKv/grad ga yetishi aniqlangan;

ilk bor Pb nung massaviy ulushi 3,2% ga oshirilganda, polikristall PbTe(Pb) yupqa qatlamlarida tok tashuvchilar konsentratsiyasi o'zining $2,5 \cdot 10^{18} \text{ sm}^{-3}$ ga teng maksimal qiymatiga erishishi aniqlangan;

ilk bor mos ravishda Te va Pb ning qo'shimcha massaviy ulushi kiritilgan polikristall PbTe(Te), PbTe(Pb) yupqa qatlamlariga asoslangan, 0.1÷0.4 eV yutilish

spektrlari diapazonida optik va fotoelektrik xususiyatlarini boshqarish imkonini beruvchi tenzorezistiv elementlar olingan;

ilk bor Pb va Te ning massaviy ulushini oshirilishi natijasida hosil bo'lgan, stexiometrik nisbati buzilgan polikristall PbTe(Pb) va PbTe(Te) yupqa qatlamlarining yutilish spektrlari $0,29 \div 0,33$ eV diapazonida ekanligi aniqlangan;

ilk bor Te nung massaviy ulushi 2,8% ga oshirilgan *p*-tipdagi polikristall PbTe(Te) yupqa qatlamlarining taqiqlangan zona kengligida erkin tellur mavjudligi bilan bog'liq bo'lgan va chegaraviy energiyasi $h\nu = 0,13$ eV ga teng qo'shimcha sath aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Dissertatsiyada ishlab chiqilgan, Te va Pb ning massaviy ulushini oshirish orqali hosil bo'lgan polikristall PbTe(Te) va PbTe(Pb) yupqa qatlamlarining termo- va tenzoelektr xususiyatlarini boshqarish usullaridan harorat, deformatsiya va charchoq yemirilishlari datchiklari uchun sezgir elementlar yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish asosida $0,33 \cdot 10^{-3}$ dan $1,32 \cdot 10^{-3}$ gacha bo'lgan nisbiy birlik oralig'ida siklli deformatsiyalar diapazonda polikristall PbTe(Te) yupqa qatlam elementlariga asoslangan samarali yuqori sezgir bosim datchiklarini yaratish imkoniyati ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy o'lchash asboblaridan D2 - PHASER (Bruker, Germaniya) rentgen difraktometri, rentgen fazaviy tahlili (XRD — X-Ray Diffraction), Raman spektrometri (Bruker, Germaniya) va tadqiqot usullaridan foydalanishga, tajribadan olingan va hisoblangan ma'lumotlar boshqa mualliflarning natijalariga mos kelishiga, shuningdek zamonaviy fizik modellar asosida olingan natijalarning tavsifiga asoslangan. Tajribalar natijasida olingan ma'lumotlarning ishonchliligi mustaqil va bir-birlarini to'ldiradigan o'lchash va tahlil qilish usullari kompleksini qo'llash orqali ta'minlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turli deformatsiyalar ta'sirida polikristall PbTe yupqa qatlamlarning strukturaviy, optik va fotoelektr xossalari tadqiq qilish jarayonlari haqida fizik tushunchalarni kengaytirishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shu bilan izohlanadiki, ular neft quvurlari va samolyotlar konstruksiyalarida, asbobsozlik va fanning boshqa sohalarida kichik deformatsiyalarda yoriqlarni aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'tastexiometrik Te va Pb ning qo'shimcha massaviy ulushi oshirilgan PbTe(Te) va PbTe(Pb) polikristall yupqa qatlamlarining strukturaviy, elektrofizik, optik va fotoelektrik xususiyatlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Neft va suv quvurlarida mikroyoriqlarni aniqlash uchun yuqori sezgir tenzodatchiklarni yaratishda qo'llanilgan. Jumladan, yuqori cho'zilish koeffitsiyentiga ega bo'lgan polikristall PbTe yupqa qatlamlari va ularning ko'p martalik siklli deformatsiyalar sharoitidagi barqarorlik xususiyatlari Rossiya Federatsiyasining Rostov-Don shahridagi Asbobsozlik nazorat va o'lchash diagnostika markazida muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazilgan (Rossiya Federatsiyasi, Rostov-Don shahri, Asbobsozlik nazorat va o'lchash diagnostika markazi, 2023-

yil). Ilmiy natijalardan foydalanish siqilish va cho‘zilish deformatsiyalarida ichki kuchlanishning $1,0 \times 10^8$ din/sm² dan $2,8 \times 10^8$ din/sm² gacha o‘zgarish qonuniyatlarini aniqlash, qo‘rg‘oshinning superstexiometrik qo‘shilishi elektr o‘tkazuvchanlikka ta’sirini baholash hamda tellurning massaviy ulushi 2,8 % ga oshirilganda PbTe(Te) yupqa qatlamlarida termoEYuKning 600 μ V/grad gacha ortishini asoslash imkonini bergan. Natijada yuqori bosim ostida ishlaydigan neft va suv quvurlaridagi mikrodeformatsiyalarni qayd etuvchi yuqori sezgir tenzodatchiklarning metrologik ko‘rsatkichlarini yaxshilash imkonini bergan.

Yuqori sezgirlik koeffitsiyentiga ega bo‘lgan polikristall PbTe yupqa qatlamlarini olish usullari Namangan muhandislik-qurilish institutida bajarilgan F2- 71 “O‘ta yuqori chastotali elektromagnit maydonda deformatsiyalangan p–n birikmaning volt-amper xususiyatlariga yorug‘likning ta’sirini tadqiq qilish” (2017–2020-yillar) fundamental loyihasini bajarishda qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2026-yil 19-martdagi 02/01-01-190-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish elektr parametrlari yuqori barqarorlikka ega bo‘lgan aktiv sezgir elementlar asosida bosim va deformatsiyani o‘lchashga mo‘ljallangan tenzodatchiklarning tajriba namunalarini yaratish imkonini bergan.

PbTe(Te) va PbTe(Pb) polikristall yupqa qatlamlarining yuqori chastotali, optik va fotoelektrik xususiyatlari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar “FOTON” aksiyadorlik jamiyatida infraqizil va yuqori chastotali diapazonlarda ishlovchi yuqori tenzosezgir datchiklarning aktiv elementlarini yaratishda joriy etilgan (“FOTON” aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 11-iyundagi 97-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish PbTe(Te) va PbTe(Pb) yupqa qatlamlarining yutilish spektrlarining qisqa to‘lqinli sohaga siljish qonuniyatlarini hamda dielektrikning yuqori chastotali xususiyatlarini aniqlash hamda, $0,33 \times 10^{-3}$ – $1,32 \times 10^{-3}$ nisbiy deformatsiyalar diapazonida ishlovchi yuqori sezgir bosim datchiklarining tajriba namunalarini yaratib, ularning elektrofizik va fotoelektrik parametrlari zamonaviy jahon analoglari darajasiga mos keladigan tenzodatchiklarni ishlab chiqarish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 7 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha asosiy natijalari 29 ta ilmiy nashlarda, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 3 ta maqola, Scopus bazasidagi jurnallarda 2 ta maqola, xorijiy xalqaro jurnalda 1 ta maqolalarda o‘z aksini topgan. Tadqiqot natijasida O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi tomonidan 2 ta dastur uchun guvohnoma olingan

Dissertatsiyaning tuzilmasi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, xulosa, to‘rtta boblar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 118 sahifalarda, jumladan, 55 ta rasmlar va 13 ta jadvallarda keltirilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirishda dissertatsiya tadqiqoti mavzusining dolzarbligi va ahamiyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnika rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari bilan bog'liqligi aniqlangan, muammoni o'rganilganlik darajasi ochib berilgan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqot ob'ektlari, predmetlari va usullari aniqlangan, tadqiqotning yangiligi bayon etilgan, natijalarni joriy etilishi va ishning aprobatsiyalanishi haqida qisqacha ma'lumotlar, shuningdek dissertatsiyaning tuzilmasi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.


“Xalkogenid yarimo'tkazgichli yupqa qatlamlarning tenzo xossalari va deformatsion xossalari” birinchi bobida qo'rg'oshin xalkogenid yupqa qatlamlarining ishlab chiqarish xususiyatlari va optik xususiyatlarini tadqiq qilishga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar manbalari tahlil qilingan.

Te va Pb ning massaviy ulushi oshirilgan polikristall PbTe yupqa qatlamlarini olish jarayonlari, shuningdek, bu qo'shimchalar yupqa qatlamlarning optik va fotoelektr xususiyatlaridagi roli tahlil qilingan. Bu ma'lumotlarni identifikatsiyalanishi uzlukli, bu yupqa qatlamlarning optik parametrlari chuqur o'rganilmagan. Shuning uchun, tashqi ta'sirlarga barqaror bo'lgan tenzosezgir datchiklarni olish uchun bu parametrlarni identifikatsiyalash va aniqlash uchun polikristall PbTe yupqa qatlamlarining kompleks tadqiqotlarini o'tkazish maqsadga muvofiq. O'tkazilgan tahlil yakunlari bo'yicha bu dissertatsiya ishida olib borilgan tadqiqot maqsadlarini qo'yilishiga mantiqiy asoslarni berdi.

“O'zgaruvchan tarkibli qo'rg'oshin-tellurid yupqa qatlamlarini olish texnologiyasi” ikkinchi bobida o'ta stexiometrik tarkibga ega PbTe asosida polikristalli yupqa qatlamlar tayyorlash texnologiyasi va hosil bo'lgan yupqa qatlamlarning optik va fotoelektr xususiyatlarini aniqlash uchun deformatsion xarakteristikalarini o'lchash usullari keltirilgan, fotoo'tkazuvchanlik spektrlari va Xoll o'lchovlari bo'yicha usullardan foydalanilgan.

Polikristalli PbTe yupqa qatlamlarini olish uchun vakuum $(4-5) \cdot 10^{-6}$ mm sim. Ust.gacha yetadigan VUP-4 vakuum qurilmasi ishlatilgan. Taglik harorati tutgichning pastki qismiga qattiq biriktirilgan xromel-alyumel termojuft orqali nazorat qilindi. Olingan PbTe yupqa qatlamning tenzosezgirliigi, optik va fotoelektr xususiyatlarini solishtirish uchun taglik sifatida poliamid, lavsan, polikor, SiO₂-Si va sital (shisha keramika) ishlatilgan. Yarimo'tkazgichli materiallarni bug'lantirish uchun bir xil bug'lanish tezligini ta'minlaydigan 3 mm diametrli teshikka ega bo'lgan alund savatlari ishlatilgan.

Kondensatdagi u yoki bu komponent tarkibining oshishi yoki kamayishi uning tuzilmasi va elektrfizik xususiyatlarining o'zgarishiga olib keladi. PbTe, Te va Pb materialini bug'lantirish uchun bir xil darajada bir-birlaridan 1-2 mm masofada joylashgan ikkita bug'latgichlar ishlatilgan. Tajribadagi bunday tartibda joylashtirish PbTe, Te va Pb moddalarining taglik ustida bir tekis taqsimlanishiga yordam berdi. Taglikning $T_n=100-120^{\circ}\text{C}$ harorati va bug'lanish moslamasi harorati $T_u=720-780^{\circ}\text{C}$ haroratlar intervalida kondensatsiyalangan qatlamlar yaxshi yopishqoqlik, past qarshilik va barqaror elektr-mexanik va elektro-fizik



1-rasm. Slyuda tagligiga olingan polikristalli qo'rg'oshin telluridning difraktogrammasi

elektr va optik xususiyatlarini tadqiq qilish” uchinchi bobida buzilgan stexiometriyaga ega PbTe yupqa qatlamlarining strukturaviy, elektr va optik xususiyatlarining haroratga bog'liqligini kompleks tadqiq qilish natijalari keltirilgan. Bundan tashqari, bu qatlamlarning samarali singdiruvchanligi natijalari tahlil qilindi.

Rentgen- strukturaviy tahlillar va difraktometrda olingan natijalar 1,2 va 3-rasmlarda keltirilgan. 1-rasmda slyuda taglikda olingan kubik tizimning polikristall PbTe ning difraktogrammasi tasvirlangan. Powder Cell-2.4 dasturi yordamida Ritveld usulida difraktogrammaga ishlov berish ICSD ma'lumotlar bazasidan (№ 225) difraktogrammaga yaxshi mos kelishini ko'rsatdi. $2\theta = 28,7^\circ$ va 46° bo'lgandagi intensiv eng yuqori qiymatlar qo'rg'oshin telluridiga mos keladigan (200) va (311) sifatida ko'rsatilgan.

Bizning holda energiyalari 1-4 keV ga yaqin bo'lgan spektral liniyalar bir nechta Cd, Te, Fe, Si elementlarga ega. Agar qaralayotgan liniya Te ga tegishli bo'lsa, uning intensivligi Cd, Fe, Si elementlarning boshqa spektral liniyalaridan 4-5 marta katta bo'ladi.


1-rasmdan ko'rinib turibdiki, yupqa qatlam polikristalli tuzilmaga ega, elementar yacheyka parametri emsa $a = 6,4743\text{\AA}$ bo'lib, adabiyotlar ma'lumotlaridan biroz farq qiladi.

Slyudadagi polikristall PbTe yupqa qatlamining difraktogrammasi D2- PHASER (Bruker, Germaniya) rentgen difraktometrda har bir nuqtada $\Delta 2\theta = 0,01^\circ$ qadam va $\tau = 0,1\text{ s}$ ma'lumotlarni to'plash vaqtiga ega Cu, Ka nurlanishidan ($K\alpha 1 = 1,54060\text{\AA}$ va $K\alpha 2 = 1,54443\text{\AA}$) foydalanish bilan olingan.

xususiyatlarga ega bo'ldi. Kondensatsiyalangan qatlamlar massaviy ulushlarini tortish natijalari shuni ko'rsatdiki. Te massaviy ulushi 4,8% gacha oshirilgan va Pb massaviy ulushi 3,2% gacha oshirilgan yupqa qatlam na'munalarda zaryad tashuvchilar konsentratsiyasini aniqlash uchun ishlatildi.


Dissertatsiyaning
“Polikristall PbTe yupqa qatlamlarining strukturaviy,

PbTe - shisha



2-rasm. Shisha taglikda olingan qo'rg'oshin telluridning difraktogrammasi

PbTe-SiO₂-Si




3-rasm. SiO₂-Si taglikda olingan qo'rg'oshin telluridning difraktogrammasi


2 va 3-raslarda mos ravishda shisha va SiO₂-Si tagliklarda olingan shunday difraktogrammalardan biri keltirilgan. Kristal panjara elementar yacheykasining a chiziqli parametrini hisoblash uchun kub tizim formulasidan foydalanildi:

$$\frac{h^2 + k^2 + l^2}{a^2} = \frac{1}{d^2}, \quad (1)$$


bu yerda h, k, l – Miller indeksleri, d – tekisliklararo masofa.




4-rasm. Boyitilmagan polikristall PbTe yupqa qatlamining difraktogrammasi.




5-rasm. Pb ning massaviy ulushi 1,2% ga oshirilgan polikristall PbTe(Pb) yupqa qatlamining difraktogrammasi.




6-rasm. Te ning massaviy ulushi 2,8% ga oshirilgan polikristall PbTe(Te) yupqa qatlamining difragtogrammasi.



7-rasm. Polikristall PbTe yupqa qatlamining morfologiyasi.



8-rasm. Pb ning massaviy ulushi 1,2% ga oshirilgan polikristall PbTe(Pb) yupqa qatlamining morfologiyasi.



9-rasm. Te ning massaviy ulushi 2.8% ga oshirilgan polikristall PbTe(Te) yupqa qatlamining morfologiyasi.

Difragtogrammalarni taqqoslaganda bir biridan farqlanuvchi rentgen cho‘qqilarini kuzatish mumkin. Taqqoslash natijasida massaviy ulushi oshirilgan va oshirilmagan polikristall PbTe, PbTe(Te), PbTe(Pb) yupqa qatlam na‘munalarida kuzatilgan yangi cho‘qqilar quydagicha farq qilganligini kuzatish mumkin: $2\theta = 27^\circ, 35^\circ, 42^\circ, 50^\circ$ hosil bo‘lgan yangi cho‘qqilar PbTe yupqa qatlamlarida binar birikmalarning shakllanish bilan bog‘liqligi aniqlandi. Bregg qonuni yordamida birikmaning panjara doimiysi hisoblaganda $a = 6.4645 \text{ \AA}$ ga teng bo‘ldi va bu adabiyotlarda ko‘rsatilgan fundamental panjara doimisiga mos keladi.

Olingan natijalar rentgen strukturaviy taxlil PbTe boyitilgan xolatda Pb va Te atomlaridan iborat bo‘lgan birikmalar hosil bo‘lishini ko‘rsatdi. Bundan tashqari, PbTe na‘munasi Pb va Te ning massaviy ulushi oshirilganda PbTe panjarasining tugunlarida joylashib, PbTe atomlari bilan o‘zaro birikadi. Bu o‘z navbatida massaviy ulushi oshirilgan PbTe namunasining asosiy fundamental parametrlarini o‘zgarishiga olib keldi, hamda o‘ziga xos optik, fotoelektrik xususiyatlariga ega bo‘lgan yangi yarimo‘tgazgich materialini sintez qilganligini dalolat beradi.

Olingan rentgen natijalaridan shuni aniqladik, Pb ning massaviy ulushi 1.2% ga oshirilgan polikristall PbTe(Pb) yupqa qatlamlarning strukturasi yaxshilanib, termoEYuK hamda optik va fotoelektrik xususiyatlari barqarorlashganligini olingan natijalarda kuzatish mumkin. Te massaviy ulushi 2.8% ga oshirilgan PbTe(Te) namunalarida esa termoEYuK bo‘yicha yuqori barqarorlik kuzatildi.

Ta‘qiqlangan zonaning kengligini aniqlash uchun xona haroratida olingan $R(\lambda)$ qaytarish koeffitsientining IQ spektral egri chizig‘idan foydalanildi va Kubelka-Munk funksiyasi hisoblandi:

$$F(R) = (1 - R)^2 / 2R = \alpha / s \quad (2)$$

Keyin quyidagi tenglamadan foydalanildi:


$$(h\nu\alpha)^{1/n} = A(h\nu - E_g) \quad (3)$$

bu yerda h – Plank domiysi, ν – chastota, A – proporsionallik koeffitsienti:

$$(h\nu \cdot F(R_\infty))^2 = F(R_\infty)(h\nu - E_g) \quad (4)$$

0,308 eVga teng bo'lgan E_g qiymati energiya o'qi bilan kesishgan joygacha urinmani approksimatsiyalash orqali olingan grafik 10-rasmda keltirilgan.

Shunday qilib, olingan E_g qiymati PbTe birikmaning tor zonali yarimo'tkazgich ekanligini tasdiqlaydi.



10-rasm. PbTe yupqa qatlam uchun $(E - F(R_\infty))^2$ funksiyaning E energiyaga bog'liqligi

Tajribalar ko'rsatdiki, qo'rg'oshin xalkogenidi yupqa qatlamlarining kislorod bilan o'zaro ta'sirlashishi hatto yupqa qatlamlar xona haroratida atmosfera havosida saqlansa ham, ularning xususiyatlarida sezilarli o'zgarishlarga olib keladi, chunki n-tipdan p-tipga o'tish tez bo'lib o'tadi (1-jadval). Bunda ishlov berish harorati 140°C, vaqt 8 soat bo'ldi. Bu haroratdan yuqori qizdirish yupqa qatlamlar xususiyatlarining qaytarilmas o'zgarishlariga olib keladi. Keyingi tadqiq qilingan yupqa qatlamlarda tellur massaviy ulushi 0,8 dan 4,8% gacha oshirildi.

Qo'rg'oshin massaviy ulushi 0,2 dan 3,2% gacha intervalda oshirilgan o'zgaruvchan tarkibiga ega yupqa qatlamlar namunalari tadqiq qilindi. Teng sharoitlarda qo'rg'oshin massaviy ulushi oshirilgan yupqa qatlamlarning elektr o'tkazuvchanligi tellur massaviy ulushi oshirilgan yupqa qatlamlarga qaraganda bir necha baravar yuqori bo'ldi. Eksperimental ma'lumotlarning natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Qo'rg'oshin massaviy ulushi 0,2 dan 3,2% gacha intervalda oshirilgan o'zgaruvchan tarkibiga ega yupqa qatlamlar namunalari

№ namuna	Pb ning massaviy ulushi oshirilgan. Massa%	PbTe – Pb			№ namuna	Pb – Te		
		$n \cdot 10^{-17},$ sm^{-3}	$R_x \sigma,$ $\text{sm}^2/\text{V} \cdot \text{s}$	$\sigma,$ $(\text{Om} \cdot \text{sm})^{-1}$		$n \cdot 10^{-17},$ sm^{-3}	$R_x \sigma,$ $\text{sm}^2/\text{V} \cdot \text{s}$	$\sigma, (\text{Om} \cdot \text{sm})^{-1}$
18	0	4,3	2,4	0,26	1	4,5	2,4	0,27
20	0,2	8,3	2,78	0,37	8	8,7	3	0,38
21	1,2	18,8	2,91	0,84	9	19,2	3,0	0,86
23	2,2	20,8	2,78	0,9	11	21,0	2,9	0,91
24	3,2	24,7	2,37	0,99	13	25,4	2,2	1,02

2-jadvalda issiqlik bilan ishlov berishdan oldin va keyin PbTe va Te birikmalarining bir vaqtning o'zida bug'lantirilishi natijasida olingan polikristall PbTe(Te) yupqa qatlamlarning elektr o'tkazuvchanlik qiymatlari keltirilgan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, issiqlik bilan ishlov berishda elektr o‘tkazuvchanligining kamayishi darajasi (2-7 marta) yupqa qatlamlar tarkibiga (Te massaviy ulushi oshirilganligiga) bog‘liq. Te massaviy ulushi oshirilganligi ortishi bilan σ o‘zgarishi o‘rtasida korrelyatsiya kuzatiladi. Tellur massaviy ulushi 2,8% oshirilgan polikristall PbTe(Te) yupqa qatlamlar issiqlik bilan ishlov berishga eng sezgir bo‘ldi.

2-jadval

Tellur massaviy ulushi 0 dan 4,8% gacha intervalda oshirilgan o‘zgaruvchan tarkibiga ega yupqa qatlamlar namunalari

№	Te massaviy ulushi oshirilganligi massa. %	σ , $\text{om}^{-1} \cdot \text{sm}^{-1}$		№	Te massaviy ulushi oshirilganligi massa. %	σ , $\text{om}^{-1} \cdot \text{sm}^{-1}$	
Namuna		Issiqlik bilan ishlov berishdan oldin	Issiqlik bilan ishlov berishdan keyin	Namuna		Issiqlik bilan ishlov berishdan oldin	Issiqlik bilan ishlov berishdan keyin
307	0	0,56	0,38	16	2,8	0,033	0,01
308		0,56	0,33	45		0,03	0,011
309		0,56	0,37	27		0,028	0,011
36	0,8	0,277	0,047	24	3,8	0,3	0,031
37		0,277	0,0192	35		0,11	0,017
38		0,2	0,05	44		0,11	0,019
17	1,8	0,156	0,062	47	4,8	0,189	0,035
25		0,14	0,062	19		0,14	0,035
28		0,14	0,041	18		0,125	0,031


3-jadvalda Pb massaviy ulushi oshirilganligiga bog‘liq ravishda PbTe(Pb) yupqa qatlamlarining elektr o‘tkazuvchanligiga havodagi issiqlik bilan ishlov berishning ta’siri natijalari keltirilgan. Bu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, yupqa qatlamlarda ΔPb ortishi bilan issiqlik bilan ishlov berishda σ qiymatning o‘zgarishi sezilarli bo‘ladi.

3-jadval


Pb massaviy ulushi oshirilganligiga bog‘liq ravishda PbTe(Pb) yupqa qatlamlarining elektr o‘tkazuvchanligiga havodagi issiqlik bilan ishlov berishning ta’siri natijalari

Namuna raqami	Pb massaviy ulushi oshirilganligi massa. %	σ , $\text{om}^{-1} \cdot \text{sm}^{-1}$		Namuna raqami	Pb massaviy ulushi oshirilganligi massa. %	σ , $\text{om}^{-1} \cdot \text{sm}^{-1}$	
		Issiqlik bilan ishlov berishgacha	Issiqlik bilan ishlov berishdan keyin			Issiqlik bilan ishlov berishgacha	Issiqlik bilan ishlov berishdan keyin
307	0	0,69	0,38	66	1,2	8,8	2,8

308		0,56	0,33	67		8,2	2,46
309		0,56	0,37	68		8,6	1,9
56		3,3	1,01	419		14,5	1,72
57	0,2	3,32	1,29	417	2,2	14,3	1,53
58		2,7	0,91	418		13,3	2



11-rasm. Tellur massaviy ulushi oshirilganligiga bog‘liq polikristall PbTe(Te) yupqa qatlamlaridagi issiqlik EyuKning o‘zgarishi



12-rasm. Qo‘rg‘oshin massaviy ulushi oshirilganligiga bog‘liq polikristall PbTe(Pb) yupqa qatlamlarda issiqlik EyuKi bog‘liqligi

Pb va PbTe birikmasidan bir vaqtning o‘zida bug‘lantirilishi natijasida olingan yupqa qatlamlarning elektr xususiyatlarini taqqoslash elektr o‘tkazuvchanligi va tashuvchilar konsentratsiyasi yaqin qiymatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Har ikkala hollar uchun ham o‘ziga xos xususiyat shundaki, ko‘proq qo‘rg‘oshinga ega bo‘lgan namunalar yuqori elektr o‘tkazuvchanligiga ega bo‘ladi.

12-rasmda qo‘rg‘oshin massaviy ulushi oshirilganligi tarkibi ortishida PbTe(Pb) yupqa qatlamlaridagi α o‘zgariishlar tasvirlangan. Bu rasmdan ko‘rinib turibdiki, ΔPb moddaning ortishi issiqlik EyuKining pasayishiga olib keladi. $\Delta Pb < 0,2\%$ massaviy ulushi ega bo‘lgan yupqa qatlamlar uchun ma’lumotlarni olishga erishilmadi, chunki bunday qo‘rg‘oshin massaviy ulushi oshirilgan yupqa qatlamlarning xossalarni o‘lchash jarayonida vakuum kamerasidan havoga olingandan so‘ng, p-tipga aylandi.

2 va 3 jadvallarda hamda 11 va 12-rasmlarda ko‘rsatilganidan ko‘ra ko‘proq kiritilgan komponentlarning ortiqchaligi $\alpha\alpha$ va $\sigma\sigma$ qiymatlarning sezilarli o‘zgarishlarga olib kelmaydi. Ushbu komponentlarning PbTe birikmasidagi maksimal eruvchanligi qo‘rg‘oshin (Pb) uchun $3,3 \cdot 10^{-3} \%$ va tellur (Te) uchun $7,6 \cdot 10^{-3} \%$ qiymatni tashkil etadi; ularning ushbu chegaradan yuqori bo‘lgan ortiqcha miqdori esa ikkinchi faza shaklida ajralib chiqishi bilan izohlanadi.

Yupqa qatlamlarning elektr o‘tkazuvchanligining haroratga bog‘liqligini eksperimental tadqiq qilish shuni ko‘rsatdiki, $\sigma(T)$ aktivlashish xususiyatiga ega, bu yerda φ_{eff} elektr o‘tkazuvchanlikni aktivlashish energiyasi (ΔE_a) ma’nosiga ega bo‘ladi. Elektr o‘tkazuvchanlikni aktivlashtirish energiyasining yupqa qatlam

materialining tarkibiga bog'liqligi o'rganildi. 13- va 14-rasmlarda $\lg \sigma$ o'zgaruvchining $\frac{1}{T}$ qiymatga bog'liqlilari tasvirlangan. 13- va 14-rasmlardagi ma'lumotlarga ishlov natijasida olingan ΔE_a qiymatning yupqa qatlam tarkibiga eksperimental bog'liqligi 4-jadvalda keltirilgan.


Bir tomondan, elektr o'tkazuvchanligi va aktivlashish energiyasi o'rtasidagi aloqalarning xarakteri, ikkinchi tomondan, materialning tarkibi har bir tarkibning bir nechta yupqa qatlamlarida bir necha bor tekshirildi.

4-jadval


ΔE_a qiymatning yupqa qatlam tarkibiga eksperimental bog'liqligi

Te massaviy ulushi oshirilgan, massa. %	ΔE_a , eV	Pb massaviy ulushi oshirilgan, massa. %	ΔE_a , eV
0,8	0,085	0	0,080
1,8	0,090	0,2	0,090
2,8	0,095	1,2	0,040
3,8	0,105	2,2	0,015
4,8	0,12	3,2	-

Bir tomondan, elektr o'tkazuvchanligi va aktivlashish energiyasi o'rtasidagi aloqalarning xarakteri, ikkinchi tomondan, materialning tarkibi har bir tarkibning bir nechta yupqa qatlamlarida bir necha bor tekshirildi.



13-rasm. Te massaviy ulushi oshirilgan PbTe(Te) yupqa qatlamlarning elektr o'tkazuvchanligining haroratga bog'liqligi. ΔE_a massa. %: 1-0; 2-0.8; 3-1.8; 4-2.8; 5-3.8; 6-4.8




14-rasm. Pb massaviy ulushi oshirilgan PbTe(Pb) yupqa qatlamlar elektr o'tkazuvchanligining haroratga bog'liqligi. 1,3,5 – komponentlarni hamda 2, 4, 6- PbTe va Pb bilan bug'lantirish orqali olingan yupqa qatlamlar. ΔE_a massa. %: 1,2-2; 3,4-2; 5,6-2,2


Haroratga bog'liq ravishda σ qiymatni o'zgarishining aktivlashish xarakteri yupqa qatlamlarga havoda issiqlik bilan ishlov berishdan keyin ham saqlanib qoladi, bunda ham qo'rg'oshin, ham tellurning massaviy ulushi oshirilgan yupqa qatlamlarning elektr o'tkazuvchanligining aktivlashish energiyasi ortadi.

Yupqa qatlamlarning volt-ampere xarakteristikalar (VAX) ma'lum darajada ularning elektr o'tkazuvchanligi mexanizmlarini baholash imkonini beradi.

